



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TURIZM VA SPORT VAZIRLIGI
BUYRUG‘I**

2021-y. “ 12 ” avgust

408 - I/Ch-sonli

**Sportning basketbol turi bo‘yicha
2005-2006 va 2007-2008-yillarda
tug‘ilgan o‘smir qizlar o‘rtasida
BO‘BL 3-tur musobaqasini
o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi turizm va sport vazirligining sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining 2021-yil uchun respublika kalendar rejasiga muvofiq

BUYURAMAN:

1. Sport o‘yinlari bo‘yicha Respublika oliy sport mahorati maktabining 2021-yil 9-iyuldagi 239-sonli xati ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Sportning basketbol turi bo‘yicha 2005-2006 va 2007-2008-yillarda tug‘ilgan o‘smir qizlar o‘rtasida BO‘BL 3-tur musobaqasi (bundan buyon matnda musobaqa deb yuritiladi) 2021-yil 15-21-avgust kunlari Jizzax viloyati, Jizzax shahrida o‘tkazilsin.

3. Musobaqaning g‘olib va sovrindorlarini 84 dona (1-o‘rin 28 dona, 2-o‘rin 28 dona, 3-o‘rin 28 dona) diplomlar bilan taqdirlash xarajatlari O‘zbekiston Basketbol federatsiyasi hisobidan qoplanishi inobatga olinsin.

4. Musobaqada ishtirok etuvchi xodimlar tarkibi 1-ilovaga, musobaqani o‘tkazish sarf-xarajatlar smetasi 2-ilovaga, musobaqaning ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng targ‘ib qilishga qaratilgan media-reja 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Moliya-iqtisodiyot departamenti (B.Mirzaxmedov)ga:

a) musobaqani o‘tkazish bilan bog‘liq sarf-xarajatlarni vazirlikning sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining 2021-yil uchun respublika kalendar rejasida 2.1.4-basketbol bo‘limida belgilangan mablag‘lar hisobidan qoplanishini nazarda tutish;

b) musobaqaning sarf-xarajatlar smetasiga muvofiq mablag‘larni Sport o‘yinlari bo‘yicha Respublika oliy sport mahorati maktabining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga o‘tkazib berilishini ta‘minlash;

6. Musobaqa bosh hakami va hakamlarning ovqatlanish xarajatlari ularning bank plastik kartochkalariga pul o‘tkazish yo‘li orqali amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

7. Sport o‘yinlari bo‘yicha Respublika oliy sport mahorati maktabi (J.Akramov)ga:

a) musobaqa uchun ajratilgan mablag'larni maqsadli sarflash;

b) musobaqa yakunidan so'ng uch kun muddat ichida vazirlikning Moliya-iqtisodiyot departamentiga mablag'larning sarflanishi bo'yicha moliyaviy hamda olimpiya sport turlarini rivojlantirish boshqarmasiga texnik hisobotlarni topshirish;

v) musobaqa davrida vazirlikning Matbuot xizmatiga musobaqaga oid fotolavhalar va to'liq ma'lumotlarni kunma-kun berib borish vazifalari yuklatilsin.

8. Jizzax viloyati turizm va sport bosh boshqarmasi:

a) musobaqani o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalari"ga asosan Jizzax viloyati hokimligidan tegishli ruxsatnoma olish;

b) musobaqani tashkil etishda Sport o'yinlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabiga amaliy yordam ko'rsatish vazifalari yuklansin.

9. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar turizm va sport bosh boshqarmalariga ushbu musobaqada o'zlarining terma jamoasi ishtirokini ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

10. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar turizm va sport bosh boshqarmalari hamda vazirlik tizimidagi respublika tizim tashkilot hamda muassasalari rahbarlariga mazkur buyruqning 1-ilovasiga muvofiq tegishliligi bo'yicha xodimlarni musobaqada ishtirok etishini ta'minlash vazifasi yuklatilsin

11. Devonxonaga mazkur buyruq nusxasini Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar turizm va sport bosh boshqarmalari hamda Sport o'yinlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabiga yuborish vazifasi yuklatilsin.

12. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir o'rinbosari



A.Karimov

Turizm va sport vazirligining
2021-yil "12" ⁰⁵ ~~08~~ dagi
~~40219~~ - sonli buyrug'iga
1-ilova

**Sportning basketbol turi bo'yicha 2005-2006 va 2007-2008-yillarda
tug'ilgan o'smir qizlar o'rtasida BO'BL 3-tur musobaqasini o'tkazishda
ishtirok etuvchi xodimlar tarkibi**

T/r	Familiyasi va ismi	Lavozimi	Yashash joyi	Ish joyi
1.	Xashimov Dilshod	Bosh hakam	Toshkent shahar	O'zbekiston basketbol federatsiyasi musobaqa koordinatori
2.	G'aniyev Ravshan	Bosh hakam o'rinbosari	Toshkent shahar	O'zbekiston basketbol federatsiyasi bosh kotibi
3.	Kuchina Lyudmila	Bosh kotib	Toshkent shahar	Toshkent shahar sportning o'yin turlari va yengil atletikaga ixtisoslashtirilgan bolalar-o'smirlar sport maktabi o'quv bo'limi boshlig'i
4.	Nugmanxodjayev Ilxom	Hakam	Namangan viloyati	Namangan olimpiya zaxiralari kolleji treneri
5.	Pasxin Yuriy	Hakam	Toshkent shahar	O'zbekiston basketbol federatsiyasi
6.	Jamilova Aida	Hakam	Namangan viloyati	Namangan olimpiya zaxiralari kolleji treneri
7.	Ortiqov Qaxramon	Hakam	Andijon viloyati	Andijon olimpiya zaxiralari kolleji treneri
8.	Xaydarov Baxtiyor	Hakam	Andijon viloyati	Andijon olimpiya zaxiralari kolleji treneri
9.	Jaxonov Dilshod	Hakam	Farg'ona viloyati	Farg'ona shaxri 24-son o'rta maxsus maktabi o'qituvchisi
10.	Dadaxonov Rustam	Hakam	Farg'ona viloyati	Marg'ilon shaxri 2-son bolalar-o'smirlar sport maktabi treneri